

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SADULLAYEV FERUZ BAXTIYOROVICH

XX ASR AMERIKA ADABIYOTIDA INSON RUHIYATI TASVIRI
(H.JEYMS VA T.VULF ROMANLARI MISOLIDA)

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Sadullayev Feruz Baxtiyorovich

XX asr Amerika adabiyotida inson ruhiyati tasviri (H.Jeyms va T.Vulf romanlari misolida)..... 3

Садуллаев Феруз Бахтиёрович

Описание душевного мира человека в американской литературе XX века (на примере романов Г. Джеймса и Т.Вульфа) 23

Sadullaev Feruz Bakhtiyorovich

Description of Human Spiritual World in the XX Century American Literature (in the examples of H.James and Th.Wolfe's novels)..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SADULLAYEV FERUZ BAXTIYOROVICH

XX ASR AMERIKA ADABIYOTIDA INSON RUHIYATI TASVIRI
(H.JEYMS VA T.VULF ROMANLARI MISOLIDA)

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.4.PhD/Fil2901 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Fayzulloyev Otabek Muxamadovich filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Jo'raeva Malohat Muhammadovna filologiya fanlari doktori, professor Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «29» aprel soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (279 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «05» - aprel kuni tarqatildi.

(2023-yil «05» - aprel dagi 29-13 - raqamli reestr bayonnomasi.)



D.S.O'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.M. Jo'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida nasriy asarlar – inson, uning o‘zligi, olam va odam orasidagi ziddiyatli muammolarni keng aspekt va rakursda talqin etuvchi, qahramonlarning surati va siyrati poetik tadqiq qilinuvchi sarmazmun tur sifatida talqin qilinadi. Mazkur masalalar ilmiy-nazariy o‘rganilib, epik turga mansub janrlarda bashariyatga tegishli mavzular badiiy idrok etilayotgani, zabardast adiblar tajribasi, ijod jarayonini anglash barobarida, badiiy so‘zning qudrati va poetik ifoda imkoniyatlari inson ruhiyatini tadqiq etishga yo‘naltirilganligi, inson dunyoqarashidagi yangi usul va tamoyillar negizida poetik talqin etilishi zamonaviy adabiy jarayon qonuniyatlarini to‘liq anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotida XX asr mobaynida roman janri muammosi, uning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, roman estetikasida xarakter masalasi, inson ruhiyati, ichki olami, olam hamda odamni anglash asosida badiiy tahliliga doir keng ko‘lamli izlanishlar olib borilgan. Ushbu ijod namunalarida insonning botini mavjud voqelik yaxlitligida anglash va anglatish maqsadida psixologizm va psixologik tahlil usullari badiiy adabiyotda muhim o‘rin tutgani uchun ham uzoq vaqtlardan beri munaqqidlar diqqatini o‘ziga jalb etib keladi. Realizm yo‘nalishi adabiyoti borliqni inson ruhiy holati vositasida tasvirlar ekan, uning ichki olamini tahlil etish orqali yozuvchining o‘zi tasvirlayotgan voqealarga munosabatini, dunyoqarashining o‘ziga xos detallarini, muallifning badiiy mahoratini, yozuvchi hamda badiiy voqelik munosabatini aniqlashda muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda inson huquqi, erkinligi va qonuniy manfaatlari muhim qadriyat darajasiga ko‘tarilgan yangi O‘zbekiston davlatini qurish borasida jiddiy tashabbuskorlik amalga oshirilayotgan bugungi kunda badiiy adabiyot vakillari ijodi, ularning asarlarida inson fenomenini o‘rganishga ilmiy muhitda alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bugungi ijtimoiy reallik, boshqa sohalarida bo‘lgani kabi, adabiyotshunoslik fanida ham o‘ziga xos yondashuv zaruratini keltirib chiqaradi. “... Adabiyot va san‘atga, madaniyatga e‘tibor – bu avvalo xalqimizga e‘tibor, kelajagimizga e‘tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q”¹. Shu ma‘noda, XX asr adabiyotida janr tipologiyasini shartlantirgan tendensiyalarning rolini zamonaviy – antropotsentrizmga yo‘naltirilgan – adabiyotshunoslik qonuniyatlari rakursida o‘rganish soha rivojini ta‘minlashga qaratilgan ilmiy yutuqlarni yangicha talqin qilish, dunyo ijod sivilizatsiyasida g‘arb va sharq adabiy hamkorligida yuzaga kelgan tutash ildizlarni ilmiy hamjamiyatga tanitishda ko‘p qirrali imkoniyatlarni ochib beruvchi yangi yo‘nalish sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-

¹Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. // Xalq so‘zi, 2017 yil, 4 avgust.

tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi XX asr adabiyotida insonning botiniy olami tasviri mualliflardan katta tajriba talab etdiki, zabardast adiblar inson, uning ruhiyasi talqini va tadqiqiga turli badiiy rakurslar asnosida yondashib, yangicha shakliy hamda mazmuniy o'ziga xoslik kasb etgan asarlar yaratishganini ko'plab ilmiy izlanishlarda asoslab berilgani e'tiborni tortadi². O'zbek adabiyotshunosligida ham so'nggi yillarda badiiy kontekstda inson ruhiyati talqiniga bag'ishlangan salmoqli tadqiqotlar amalga oshirildi³.

H.Jeyms ijodi dolzarbligi, hayotiyligi va haqqoniyligi, xususan psixologik nasr, psixologik roman janridagi yaratgan modernistik ijodi bois hozirgi kunga qadar adabiy tanqidchilikda atroflicha o'rganilganligini alohida ta'kidlash mumkin. Xususan, muallif asarlarining badiiyati, janriy xususiyatlari talqinining teran ilmiy tahlilini keltirgan adabiyotshunoslar qatoriga L.Edel, D.Jefferson, F.Dyupi, B.MakElderli, D.Abbel, G.Putt, L.Pauers, O.Karjills singari atoqli munaqqidlar tadqiqotlarini sanab o'tish mumkin⁴.

²Гинзбург Л. О психологической прозе. – Л.: Художественная литература, 1976. – С.448.; Ahmed N.H.M. Techniques of Psychological Novel in 20th Century American Literature as Exemplified by the works of Henry James and William Faulkner. – A Thesis Submitted in Fulfillment of the Requirements for Ph.D. Degree in English Language (Literature), 2015. – P. 186.; Edel L. The Modern Psychological novel. – N.Y.: Grosset & Dunlap, 1964. – P. 222.; Лазуткина О. Синтез литературного портрета и "принципа айсберга" в произведениях Э.Хемингуэя. – Международный научно-исследовательский журнал, №5 (119), часть 4, Е.:2022. – С.96-99.;

³ Normatov U., Hamdam U. Dunyoni yangicha ko'rish ehtiyoji. – Jahon adabiyoti, № 12, 2002. – В. 142-166.; Qobilova N. Jek London va Abdulla Qahhor ijodida badiiy psixologizm. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Buxoro, 2020. – В.44.; Muhammadiyev A. Qahramon ruhiyati va uning asarda tasvirlanishiga doir. – Research Focus, Volume 1, Issue 1, 2022. – 259-264.; Ботинова Ш. Роль психологического отображения в характеристике персонажей в романе У.Хамдама "Бунт и покорность". - Т.: Вестник ЧГУУ, №3, 2012. – С. 248-258.

⁴ Critical Insights. Henry James. Edited by Hubbard T. – N.Y.: Grey House Publishing, 2016. – P.302; Scura, Dorothy McInnis. Henry James, 1960-1974 : a reference guide. - Boston : G.K. Hall, 1979. – P.520; Bloom, Harold. Henry James. - Broomall, PA : Chelsea House Publishers, 2002. – P.120; The Cambridge companion to Henry James. Edited by Freedman J. – N.Y.: Cambridge University Press, 1998. – P.292; The question of Henry James; a collection of critical essays. Edited by Dupee F.W. - N.Y.: Octagon Books, 1973. – P.336; Canby, Henry Seidel. Turn west, turn east: Mark Twain and Henry James. - Boston, Houghton Mifflin, 1951. – P.348; McElderry, Bruce R., Jr. Henry James. – N.Y.: Twayne Publishers, 1965. – P.1965. – P.200; Allen, Elizabeth. A Woman's place in the novels of Henry James. - N.Y.: St. Martin's Press, 1984. – P. 227. Caws M.A. Henry James. – N.Y.:

T.Vulf nomi XX asr Amerika realistlari bilan bir qatorda tilga olinib, ular o'rtasidagi realistik munosabat ifodasidagi mutanosibliklar, hukmron voqelik qabulidagi o'xshash hissiyotlar talqini, shaxs hamda o'zlik tushunchalarining adabiyotdagi in'ikosi, mavzular tanlovida o'xshashlik hamda tafovutlar jihatidan muqoyasa qilingani ko'zga tashlanadi. Xususan, muallifning estetik o'ziga xos qarashlari, badiiy yondashuvdagi spetsifik individualligi, asarlarining struktur, janriy, uslubiy betakrorligi nazariyotchilar diqqat markazida bo'lib kelgan⁵.

O'rganishlar natijasida ijodkorlarning romanlari turli aspektda hamda rakursda tadqiqi amalga oshirilgani, ammo XX asrning turli davrlarida yashab, ijod qilgan H. Jeyms hamda T.Vulf asarlarida inson ruhiyati tasviri jihatidan qiyosiy o'rganilganilishiga oid tizimli tadqiqot mavjud emasligining guvohi bo'ldik.

Mazkur dissertatsiyada H.Jeyms hamda T.Vulf romanlarida inson ruhiyatining tasvirlanishi, qahramonlarning ichki olami shakllantirilishida tashqi omillar ta'siri, adiblarning tasvirdagi hamohang va farqli uslubi, ijodkorlarning inson kechinmalarini ifodalashda badiiy mahorati kabi masalalar ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganilishi ko'zda tutildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarjima ishi" ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi H.Jeyms hamda T.Vulf romanlari asosida XX asr Amerika nasrida inson ruhiyati tasvirining poetik tamoyillari, ijtimoiy-psixologik omillari, qahramonlar tasviri bilan bog'liq mushtarak va o'ziga xos jihatlarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Amerika adabiyotshunosligida inson ruhiy olami tadqiqi bo'yicha ilmiy izlanishlarning paydo bo'lishi, shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlarini nazariy-metodologik jihatdan asoslash;

"psixologik nasr" tushunchasining asosiy mazmuni va chegaralarini aniqlash va uning Amerika adabiyotida kelib chiqishini kuzatish;

H. Jeyms, T.Vulf hamda ularning zamondoshlari romanlaridagi realistik va psixologik janr sintezining mohiyatini oydinlashtirish;

Overlook Duckworth, 2006. – P.120; Vann J.D. Critics on Henry James. – USA.: University of Miami Press, 1972. – P.107.

⁵ Данелия М.С. Сопоставительный анализ психологической новеллы У. Фолкнера и Т. Вульфа. Автореферат диссертации по филологии. – Грузия, 1985.; <https://www.dissercat.com/content/sopostavitelnyi-analiz-psikhologicheskoi-novelly-u-folknera-i-t-vulfa>; Turnbull A. Thomas Wolfe. – N.Y.: Scribner, 1968. – P.408; Mitchell T. Thomas Wolfe: A Writer's Life. – USA.: Appalachian State University, 2017. – P.137; McElderry B.R. Thomas Wolfe. - N.Y.: Twayne Publishers, 1964. – P.216; Field L.A. Thomas Wolfe: three decades of criticism. – N.Y.: New York University Press, 1968. – P.340; Kennedy R.S. Thomas Wolfe: A Harvard Perspective. – USA.: Croissant, 1983. – P. 136; Phillipson J.S. Critical Essays on Thomas Wolfe. – USA.: G.K. Hall, 1985. – P.248; Muller H.J. Thomas Wolfe. – USA.: New Directions Books, 1947. – P.214.; Bloom H. Thomas Wolfe. – N.Y.: Chelsea House Publishers, 1987. – P.191; Mauldin J.M. Thomas Wolfe. – USA: University of Tennessee Press, 2007. – P.384; Scotchie J. Thomas Wolfe Revisited. – USA: Land of the Sky Books, 2001. – P.164.

⁵Mitchell T. Thomas Wolfe: A Writer's Life. – USA.: Appalachian State University, 2017. – P.17.

XX asr AQSH realistik nasrida hayot materialining real talqini, inson ruhiyati tasvirida H.Jeyms hamda T.Vulfning uslubiga xos yaqin va farqli belgilar borligini ko'rsatish;

H.Jeyms hamda T.Vulf romanlarida inson ruhiyati talqini ijtimoiy-psixologik asoslariga ko'ra farqli ifoda etilganini dalillash;

har ikkala adib romanlarida inson ruhiyati tasviri hamda talqini bilan bog'liq poetik tamoyillar mushtarakligini aniqlash;

tadqiqot markazidagi adiblar asarlarining muammoli-mavzuiy va g'oyaviy mazmunining dunyoqarash shartlarini, ularning romanistik tafakkurining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida amerikalik adiblar H. Jeymsning "The Wings of the Dove", "The Golden Bowl", T.Vulfning "Of Time and the River", "You Can't Go Home Again" romanlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini XX asr Amerika adabiyotida inson ruhiyati tasviri va talqini bilan bog'liq badiiy xususiyatlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida biografik, tavsiflash, kognitiv-diskursiv, badiiy-psixologik, ijtimoiy-madaniy kabi tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XX asr AQSH adabiyotida davr mafkurasining inson ruhiyatiga ta'siri, inson ichki olami tasviriga modernistik yondashuvning ijtimoiy-tarixiy asoslari H.Jeyms va T.Vulf romanlarining badiiy konsepsiyasi, g'oyaviy-axloqiy mohiyati, muallif estetik strategiyasi, tafakkuri, lisoniy elementlarning konstruktiv funksiyalari orqali namoyon bo'lganligi aniqlangan;

Amerika adabiyotshunosligida inson ruhiyati tasviri, badiiy psixologizm, ong oqimi, ichki monolog kabi ruhiy tasvir vositalarini voqelantirishda muallif tafakkuri, qahramonning shaxsiy muammolari, ma'naviy va psixologik izlanishlari yetakchi o'rin egallashi isbotlangan;

modernistik yondashuv nuqtai nazaridan T.Vulf ijodida qahramon ruhiy tasvirida qo'llangan ichki monologlarning badiiy jihatlari, psixologik portret, detal, manzara, nutq qatlamlari, vaziyatning shartliligi va metaforik mohiyati kabi badiiy usullarning mazmunga mutanosibligida namoyon bo'lishi asoslangan;

H.Jeyms romanlarida inson ma'naviy-ruhiy hayotini aks ettirishdagi obraz, xarakter, muallif nutqi, psixologik manzara, parallel tasvir, xotira, retrospeksiya, tabiat tasviri, ramzlar, takror va o'xshatish singari uslubiy vositalarning keng ko'lami, boylik, yolg'izlik kabi turli motivlar, psixologik konfliktning qorishiq usullari, qahramonlar ruhiyatidagi dinamika, muallifning ruhiy tasvirdagi ijodiy individual jihatlarning ustuvorligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

XX asr Amerika adabiyoti realistik nasrida yaratilgan epik turga mansub roman janridagi asarlarning badiiy-kompozitsion, lingvopoetik xususiyatlarini ochishda H.Jeyms va T.Vulf prozasining badiiy qiymati dalillangan;

adabiyotshunoslikda inson ruhiyati tasvirlangan nasriy asarlarning poetik xususiyatlari, badiiy-estetik vazifalarini tahlilga tortish va asarlar misolida qiyosiy dalillash adabiyotshunoslik nazariyasi, jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik

kabi fanlardan yaratilajak darslik va qo'llanmalarning mukammallashtirishiga xizmat qilishi asoslangan;

adiblarning asarlarini hayotiylik, haqqoniylik, davrning o'tkir ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy masalalarini dadil o'rta qo'yishi, inson va uning qalbi haqidagi haqiqatning yangi qirralarini ochib bergani, keskin drammatizmi, teran gumanizmi bugungi kunda millat kelajagi – yoshlarning ma'naviyatini boyitishda, o'zligini anglashi va atrofidagi insonlarni teranroq tushunishida muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Tadqiqot mavzusi bo'yicha chiqarilgan xulosalarning aniqligi, muammoning aniq qo'yilishi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullar, amalga oshirilgan tahlillarning biografik, tavsiflash, kognitiv-diskursiv, badiiy va psixologik tahlil metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr, xulosa, natijalarning amaliyotga joriy etilganligi vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati adabiyotshunoslik sohasida mavjud muammolarni tadqiq qilish, uning asosiy tahliliy xulosalaridan Amerika adabiyotida inson ruhiyatini ifodasiga asoslangan asarlar poetikasi haqidagi tasavvurlarni mukammallashtirish, XX asr Amerika nasrining milliy-madaniy xususiyatlarini to'laqonli o'rganish, amerikalik nosirlar yaratgan asarlarning tabiatini izchil o'rganish holda, ular orasidagi mazmuniy-uslubiy mushtaraklik holatlarini aniqlash imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya faktik materiallari va ilmiy xulosalaridan bakalavriyat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun "Xorijiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari", "Adabiyotshunoslik nazariyasi", "Jahon adabiyoti", "Stilistika" o'quv kurslari, o'rta ta'lim "Adabiyot" o'quv predmeti bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishda, ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini olib borishda, bitiruv malakaviy va magistrlik ishlarini bajarishda, Amerika adabiyoti tarixidan maxsus kurslar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XX asr AQSH realistik adabiyoti, xususan H.Jeyms hamda T.Vulf romanlari poetik xususiyatlari, inson ruhiyatini tasvirlanishida mualliflar mahoratini aniqlash jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

XX asr AQSH adabiyotida davr mafkurasining inson ruhiyatiga ta'siri, inson ichki olami tasviriga modernistik yondashuvning ijtimoiy-tarixiy asoslari H.Jeyms va T.Vulf romanlarining badiiy konsepsiyasi, g'oyaviy-axloqiy mohiyati, muallif estetik strategiyasi, tafakkuri, lisoniy elementlarning konstruktiv funksiyalari orqali namoyon bo'lganligiga oid nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020 yillarda bajarilgan FA-F1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2022-yil 17-dekabrda №17.01/219-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida qiyoslangan asarlarda qahramonlar ruhiyatidagi dinamika, muallifning ruhiy tasvirdagi ijodiy

individual jihatlari hamda ularning falsafiy xususiyatlariga doir poetik masalalar takomillashtirilgan;

Amerika adabiyotshunosligida inson ruhiyati tasviri, badiiy psixologizm, ong oqimi, ichki monolog kabi ruhiy tasvir vositalarini voqelantirishda muallif tafakkuri, qahramonning shaxsiy muammolari, ma'naviy va psixologik izlanishlari yetakchi o'rin egallashi bilan bog'liq xulosalardan Buxoro davlat universitetida SUZ80021IN3103 raqamli "Amerika adabiyoti klubi" nomli xorijiy loyihada foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2022-yil 3-dekabrda №04-04/01-2398-son ma'lumotnomasi). Natijada XX asr Amerika nasrining milliy-madaniy xususiyatlarini, amerikalik nosirlar yaratgan asarlarning tabiatini, ular orasidagi mazmuniy-uslubiy mushtaraklik holatlari aniqlanishining asoslanishiga erishilgan;

modernistik yondashuv nuqtai nazaridan T.Vulf ijodida qahramon ruhiy tasvirida qo'llangan ichki monologlarning badiiy jihatlari, psixologik portret, detal, manzara, nutq qatlamlari, vaziyatning shartliliigi va metaforik mohiyati kabi badiiy usullarning mazmunga mutanosibligida namoyon bo'lishi bilan bog'liq xulosa va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasida "Assalom, Buxoro", "Sakkizinchi mo'jiza" kabi turkum ko'rsatuvlar, "Muloqot va munozara", "Qadriyatlar qadim beshigi" radioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 13-dekabrda №1/331-son ma'lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlarning kitobxonlikka qiziqishi oshirilishiga, adiblarning inson ruhiyati tasviridagi mahorati bo'yicha ilmiy tasavvur-tushunchalarini boyitishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi Tadqiqot natijalari 2 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, ulardan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 124 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**XX asr Amerika modernizm adabiyoti va inson ruhiyati aks ettirilishining ijtimoiy-psixologik asoslari**" deb nomlangan

bo'lib, "Adabiyotda inson ruhiyatining badiiy tavsiflanishi", "AQSH modern adabiyotining tarixiy hamda ijtimoiy negizlari", "XX asr Amerika psixologik romanida ruhiy tasvirning nazariy tamoyillari" nomli uch fasldan tarkib topgan. Mazkur bobda XX asr AQSH adabiyotida davr mafkurasining inson ruhiyatiga ta'siri natijasida badiiy asarlarda inson ichki olami tasviriga modernistik yondashuvning ijtimoiy-tarixiy asoslari, Amerika psixologik romanidagi badiiy shakl va uslubning o'ziga xosligi o'rganildi.

L.Ginzburg "Psixologik nasr xususida" kitobida psixologik realizm, badiiy psixologizm, ayniqsa psixologik roman haqida mulohazalarini ifodalari ekan, psixologik nasriy asarlar to'satdan vujudga kelmaganini, ular mualliflarning uzoq ijodiy kuzatuvlari va hayotiy tajribalari natijasida yaratilganini ta'kidlaydi.

Badiiy qahramon – bu bir shaxsning tashqi ko'rinishi yoki uning asarda tasviri keltirilishidir. Uning so'zlari, harakatlari, tashqi xususiyatlari, ichki holatlari, u bilan bog'liq voqealarni bayon qilish, muallif tahlili – bularning barchasi yaxlit shakllanib, turli syujetli vaziyatlarda ishlaydigan ma'lum bir birlikni tashkil qiladi. Adabiyotshunos XIX asrga qadar inson ichki holati talqini borasida urinishlar bo'lgani, klassitsizm, romantizm davri ijod namunalarida inkishof etilgan o'ziga xos yondashuvlar ekanini, Yevropa adabiyotida nemis, fransuz hamda ingliz namoyandalari hissalarining batafsil tahlilini keltiradi⁶. Fransuz adabiyotida M.Lafaetning "La Princesse de Clèves" ("Prinsessa Klevskaya") asari 1678 yilda anonim tarzda chop ettirilgan psixologik romanning zamonaviy an'alarini boshlab berdi. Mazkur kitobda nazariyotchi realistlik psixologizmning asosi XVII asrga borib taqaladigan analitik romanlar ekanini, M.Lafaetning "La Princesse de Clèves" ("Prinsessa Klevskaya") asari psixologik roman an'alarini boshlab berganini qayd etadi. B.Konstanning "Adolf" romani 1807 yilda yozilgan, 1815 yilda nashrdan chiqqan bo'lib, yosh yigitning hayotiga ijtimoiy fikrning naqadar salbiy ta'sir etishi xususida so'z boradi. Munaqqid mazkur adibni so'zsiz psixologik roman otasi, deb ta'riflash mumkinligini uqtirar ekan, qahramon tilidan so'zlab beriladigan asar voqealari bevosita kitobxonni unga yaqinlashtirib qo'yishini, uning tashvishlari hamda anduhlaridan voqif qilib borishini qayd etadi.

Insonning shaxsiy va ma'naviy ruhiy dunyosi tasviri qadimgi zamonlardan tortib, zamonaviy adabiyotga qadar davom etgan tendensiyalarni o'z ichiga qamrab oldi. Romantizm an'analari ustuvorlik qilgan yillarda bu yondashuvga jiddiyroq diqqat qaratildi, ammo XIX asrga kelib, psixologizm rivoji, L.Tolstoyning "qalb dialektika"si, F.Dostoevskiyning "polifonizm"i sababli inson ruhiyati teranroq qalamga oлина boshlandi.

Yevropa adabiyotida M.Lafaetning "La Princesse de Clèves" ("Prinsessa Klevskaya"), B.Konstanning "Adolf" romanlari, M.Prustning "Remembrance of Things Past", D.M.Richardson "Pilgrimage", J.Joysning "A Portrait of the Artist as a Young Man" singari bir qator ijod namunalari zamonaviy psixologik roman vujudga kelishida nazariy asos bo'lib xizmat qildi. XX asrda inson tavsifi, uning tasviri va talqini, asosan ichki tasvirga keng o'rin ajratilganini M.Prust, J.Joys,

⁶ Гинзбург Л. О психологической прозе. – Л.: Художественная литература, 1977. – С.275.

V.Vulf, F.Dostoyevskiy, L.Tolstoy, D.Richardson, U.Folkner kabi yozuvchilar ijodida kuzatildi, badiiy psixologizm shakllari, ayniqsa, ong oqimi, ichki monolog singari badiiy usullar ularning asarlarida ustuvorlik qildi.

XX asrda insonning botiniy olami tasvirida mualliflardan katta tajriba talab etdi. Mazkur yozuvchilar badiiy dunyosi bir qarashda rang-barang va murakkabdek taassurot uyg'otsa ham, adiblarning qahramonlari dinamikasiga e'tibor berilsa, ular orasida mantiqiy izchillik kuzatish mumkin. Obrazlar tabiatan teranlashib, sayqallanib borgani seziladi. Tasvir va talqindagi sinchkovlik, xarakter takomilidagi tabiiylik mualliflarning yuksak iqtidoridan dalolatdir. Jahon adabiyotida yaratilgan hamda yaratilayotgan nasriy asarlarda qahramonlarning botini, ularda kechgan evrilishlar, orzu hamda umidsizliklar birday qalamga olinadi. E'tiborli jihati, mazkur turga mansub janrlarda bu tasvir o'zgachalik kasb etganidir.

Tadqiqotlarda roman – psixologik tahlil uchun imkoniyatlari eng keng janr ekanini, romanga xos bo'lgan tarixiy davrning keng manzarasini, ma'lum ijtimoiy hayotning badiiy tarixini yaratish bilan xarakterlanadigan bosh xususiyat bu janrdagi asarlarda ma'lum qahramonlar xarakterida namoyon bo'ladigan ijtimoiy va milliy psixologiyani ham, xarakterning “qalb dialektikasi”ni ham keng, izchil, har tomonlama ochish va bunda turli usul va vositalardan foydalanish imkonini berishi ta'kidlanadi⁷.

Insonning botiniy olami tasviri haqida e'tiborli fikrlarni L.Edel ham “The Modern Psychological Novel” kitobida keltiradi. Adabiyotshunos kitobning dastlabki sahifalaridanoq inson ichki dunyosi talqiniga teran yondashuvning tarixiy ildizlarini bayon etar ekan, Birinchi Jahon urushi bo'sag'asida bir-birini tanimagan uch muallifning XX asr nasriga ko'rsatgan ulkan ta'siri; Fransiyada M.Prust 1913 yilda hozirda “Remembrance of Things Past” sarlavhasi bilan mavjud sakkiz qismli kitobning dastlabki ikki to'plamini nashr ettirishi; ingliz ayol yozuvchisi D.M.Richardsonning “Pilgrimage” deb nomlangan o'n ikki qismdan iborat asarining birinchisini nashrdan chiqarishi; irlandiyalik J.Joysning “A Portrait of the Artist as a Young Man” asarining yaratilishi jahon adabiyotida tub burilish yasaganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, zamonaviy psixologik romanning vujudga kelishi aynan shu davr, ya'ni 1913-1915 yillar bo'lib, ingliz adabiyotshunosligida uni “ong oqimi romani”, “ichki monolog romani”, fransuz adabiyotshunosligida “zamonaviy analitik roman” terminlari unga nisbatan qo'llanishini ayon etadi⁸. Nazariyotchi XX asrda inson tavsifi, uning tasviri va talqini, asosan ichki tasvirga keng o'rin ajratilganini M.Prust, J.Joys, V.Vulf, F.Dostoyevskiy, L.Tolstoy, D.Richardson, U.Folkner kabi ijodi misolida tahlil qiladi.

Ong oqimi badiiy usul yoki texnika sifatida ishlatilgani sababli, keyinchalik “ong oqimi romani”, “ong oqimi adabiyoti” kabi terminlar ham adabiyotshunoslar

⁷ Qobilova N. Jek London va Abdulla Qahhor ijodida badiiy psixologizm. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Buxoro, 2020. – B.11.

⁸ Edel L. The Modern Psychological novel. – N.Y.: Grosset & Dunlap, 1964. – P. 11.

tomonidan qo'llana boshlandi⁹. XX asr Amerika adabiyotida ong oqimidan foydalangan ko'plab yozuvchilar modernistlar bo'lib, ular XX asr Amerika nasrida yangi texnika va usullar vositasida inson ruhiyatining tub-tubiga qadar tasvirlashga muvaffaq bo'lishdi. Ayniqsa, U.Folkner va P.H.Lourens singari yozuvchilar o'zlarining realistik asarlarida haqqoniy hamda ishonchli tarzda makon, qahramon va voqealarni aks ettirishdi. Ong oqimi adabiyoti muallifga xayoliy olamni kitobxon ko'z oldida gavdalandirish imkonini beradi, bu bilan kitobxon qahramonlarning ongu-idrokida kehadigan jilovsiz fikr hamda tuyg'ulardan xabardor bo'lishga muvaffaq bo'ladi.

Ong oqimining badiiy usul sifatida quyidagi xususiyatlari mavjud:

1. Turli shakl va ko'rinishdagi fikr va hissiyotlarni qayd qilish;
2. Inson *ruhiyatiga ta'sir qiladigan ichki hamda tashqi kuchlarni tadqiq etish*;
3. Rivoya ketma-ketligiga rioya qilmaslik;
4. Mantiqiy sabablarning mavjud emasligi;
5. Sintaksis va punktuatsiyada o'zgarishlar;
6. Voqealar rivojini kuzatishdagi murakkablik.

Ong oqimi usuli kitobxonni qahramonlarning ruhiy olamiga chuqur olib kirar ekan, asarga poetik ritm berishda foydalanish mumkin, real hayotiy fikr-o'ylarni taqlidiy nusxasi orqali kitobxon ko'zi oldida ajoyib haqiqatnamo olam yarata oladi. Ong oqimi usulidan foydalanadigan yozuvchida ifodalashni istaydigan badiiy maqsadi, talqin etadigan qadriyatlar tuyg'usi bo'ladi. Muallif kitobxon bilan maxsus tarzda muloqot qilishni xoxlaydi. U bu maqsadini badiiy asarga ko'chirishda qahramonlarning ichki olamidagi ruhiy faolligidan unumli foydalanadi.

Ichki monologni qo'llashda punktuatsiya o'ziga xos o'rin egallaydi. Tinish belgilari fikrlar, xotiralar, his-tuyg'ular uzviylikini, qahramonlarning qarorlarini ifodalashda muhim o'rin egallaydi. Badiiy adabiyotda ichki monologlarning to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni bevosita hamda bilvosita turlari uchraydi. *Bevosita* shaklida muallif go'yo ortga chekinib, qahramonlar nutqi yaqqol eshitilib, ong oqimi ta'sirida vujudga keladi. *Bilvosita* shaklida muallif qahramonlarining nutqini tahlil qilib, sharhlar ham berib boradi.

XX asr AQSH modernistik nasrida adiblar ichki monolog imkoniyatlaridan keng foydalanishdi. Xususan, U.Folkner "The Sound and the Fury", "As I Lay Dying" hamda "Absalom, Absalom" romanlarida ichki monologning o'ziga xos qirralari namoyon bo'ladi. "As I Lay Dying" asarida yozuvchi kitobxoniga bir necha inson holatini his qilish imkonini beradi. Asar qahramoni Darl Bundren kechinmalari tasviri oilada sodir bo'layotgan voqealarni ifodalasa, Ans Bundren fikrlari orqali oilaga boshqa rakursdan qarash imkoni beriladi. Kora Tallning ichki nutqi kitobxoniga oilaga tashqaridan turib, vaziyatni odilona tahlil qilishga yordam beradi.

⁹ Ahmed N.H.M. Techniques of Psychological Novel in 20th Century American Literature as Exemplified by the works of Henry James and William Faulkner. – A Thesis Submitted in Fulfillment of the Requirements for Ph.D. Degree in English Language (Literature), 2015. – P. 31.

Inson ruhiyati tasvirida nafaqat monolog, balki dialoglarning ham o'zni beqiyos. *Dialog* matnning muhim bir qismlaridan biri bo'lib, ikki va undan ortiq kishining muloqoti, qahramonlarning o'zaro munosabati, dunyoqarashiga ko'ra kitobxonga qimmatli ma'lumotlar yetkazadi. Dialoglar jarayonida qahramonlarning bir-biriga munosabati, ularning xulqi, nutqiy birliklari, emotsiyalarining nutqda ifodalashiga qarab muallif personajlarining ko'z ilg'amas jihatlariga e'tiborni qarata oladi.

Qahramon ruhiy olami ifodasida *introspeksiya* (psixologik introspeksiya)ning ham o'zni muhim. Introspeksiya qahramonning bir muddat o'zi harakat qilgan muhitni tark etib, o'zining ichki olamiga, ruhiy dunyosiga chuqur kirib borishidir. Mazkur badiiy usulning o'ziga xosligi shundaki, qahramon idroki, ongi harakat sodir bo'layotgan makon vazifasini o'taydi. *Retrospeksiya* ahamiyatli badiiy usullardan biri sifatida qahramonning o'tmishi va hozirini bog'lovchi ko'priklar vazifasini o'taydi. Retrospeksiya sababli kitobxon xotira yordamida ma'lumotlarni qayta shakllantira, tahlil qilish orqali muallifning asl niyatini anglay oladi. Dastavval ahamiyatsiz tuyulgan retrospektiv ma'lumotlar takror eslatilishi natijasida qahramon tasvirida dolzarflik kasb eta boshlaydi. *Prospeksiya* – asarning keyingi qismlarida muhokama qilinadigan narsalarga mazmuniy-faktik ma'lumotni havola qilishning turli lingvistik shakllarini birlashtirgan tekstning grammatik kategoriyasi. Ko'rinib turibdiki, prospeksiya, retrospeksiya va introspeksiya o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lib, mazkur uchala hodisa ham xarakterning ichki voqeligini ochib berishda ishlatiladi.

O'tmishdagi voqealarni xotira yordamida talqin etish hamda kelajakda sodir bo'ladigan hodisalarga ishoralar qahramon ongi orqali amalga oshiriladi. XX asr Amerika adabiyotida F.Skott Fitsjerald ijodida qahramon ruhiyati, ichki olamidagi ziddiyatlar tasvirida muallif introspeksiyadan mohirona foydalanadi. Personajlar orasida kechayotgan qizg'in suhbat yoki serharakat voqealar tafsilotlari orasida qahramon ichki reaksiyasiga bag'ishlangan qismlarni uchratish mumkin, ularda qahramon ongida kechayotgan kelishmovchilik tasvirlanadi. *“The idea staggered me. I remembered of course that the World's Series had been fixed in 1919 but if I had thought of it at all I would have thought of it as a thing that merely happened, the end of some inevitable chain. It never occurred to me that one man could start to play with the faith of fifty million people — with the single-mindedness of a burglar blowing a safe¹⁰”*. Muallif mazkur parchada qahramonning xotira sahifalarini tiklash, o'tmishdagi tajribalarini tasvirlash maqsadida 1919 yil voqealarini qayta eslatmoqda. Aynan shu usul orqali yozuvchi qahramonida o'zgarish boshlanayotganini, uning hayotga munosabatidagi evrilishlar syujet rivojida yangi chiziqlar ochib berishiga ishora qiladi. Ko'rinib turibdiki, bu fikrlar qahramonning his qilishi yoki o'ylashi orqali namoyon bo'ladi va kitobxon konfliktning yechimini diqqat bilan kuzatadi.

Dissertatsiyaning **“H.Jeyms ijodining o'ziga xosligi hamda inson ruhiyati tasvirining badiiy-estetik vazifalari”** deb nomlangan ikkinchi bobi “H.Jeyms

¹⁰ <https://rhapsodistreviews.wordpress.com/tag/introspection/>

romanlarida uslubiy o'ziga xosliklar", "“The Wings of the Dove” romanida ayol qahramonlar ruhiy olamining bevosita va bilvosita tasvirlanishi”, "“The Golden Bowl” asarida H.Jeymsning psixologik tahlil mahorati” nomli uch fasldan tarkib topgan. Mazkur bobda H.Jeyms ijodi, asarlarining o'ziga xos jihatlari hamda uning ijod namunalariida inson ruhiyati tasvirining badiiy-estetik vazifalari haqida so'z borib, unda muallif ijodi, davriylashtirilishi, ijodiy bosqichlarda yaratilgan romanlarning uslubiy o'ziga xosliklari, “The Wings of the Dove” romani, vujudga kelishi, tarixi, yoritilgan mavzular va unda ayol qahramonlar ruhiy olamining bevosita va bilvosita tasvirlanishi, “The Golden Bowl” asari, qahramonlar tasvirining spetsifik xususiyatlari, aynan mazkur ijod namunasida H.Jeymsning psixologik tahlil mahorati singari masalalar tahlil qilingan.

H.Jeyms XIX asrning so'nggi ikki o'n yilligida hamda XX asrning dastlabki dekadasiida o'ziga xos uslubini namoyon etgan holda AQSH realistik adabiyotiga o'zining betakror nasriy asarlari bilan beqiyos hissa qo'shdi. Yozuvchi asarlari, asosan, uch bosqichga – shogirdlik, o'rta va asosiy bosqichlarga bo'linib o'rganildi. Dastlabki davrda asosan kichik nasriy asarlar va “The American”, “Washington Square” romanlari; o'rta bosqichda ko'proq romanlar, xususan “The Portrait of a Lady”, “The Bostonians”, “The Princess of Casamassima”, “The Tragic Muse”, “The Other House”, “The Spoils of Poynton”, “What Maisie Knew”, “The Awkward Age” ijod namunalari; asosiy ijod pallasida uchta psixologik tahlil jihatidan kuchli va mukammal “The Wings of the Dove”, “The Ambassadors”, “The Golden Bowl” dunyo yuzini ko'rdi. H.Jeyms qahramonlari taqdiridagi turli – baxtli, qayg'uli, tashvishli daqiqalar tasvirida, ularning tashqi munosabatlardagi vaziyati bilan bir qatorda, ruhiy holatini ham gavdalantirishga muvaffaq bo'ldi. Ikkinchi davrda dastlabki bosqichga qaraganda yozuvchining ruhiy tasviri ancha mukammalashgani ayonlashdi, har bir qahramoni olamiga teran nazar solib, turli rakursda yondashdi. So'nggi asosiy davrda muallif qahramonlar ichki dunyosini ochib berish, ruhiy tasvirda o'ziga xos maktab yarata olgani namoyon bo'ldi. Psixologik romanlar muallifi sifatida inson ruhiyati tasvirida izchillikga erishdi.

“The Portrait of a Lady” romani H.Jeymsning mashhur asarlaridan biri bo'lib, munaqqidlar tomonidan yuksak baholangan ijod namunasi sanaladi. Asarda yosh amerikalik ayol Izabel Archerning taqdir zarbalarini mardonavor qarshi olishi tasvirlanadi. Yozuvchining ko'plab ijod namunalari uchun makon vazifasini Yevropa o'tagani bois, mazkur romanda ham voqealar Angliya va Italiyada bo'lib o'tadi. H.Jeyms romanlarini birlashtirib turuvchi xususiyatlardan biri shuki, bosh qahramonlardagi samimiylik, soddalik va halollik ularni real insonlarga yaqinlashtiradi. Ularning barchasida zaif nuqtalari mavjud bo'lib, atrofidagi insonlar undan foydalanishga urinishadi, ammo ular asardagi shijoatliliklari bilan o'zliklariga xiyonat qilishmaydi. Adib mazkur romanida inson idrokini teranroq tahlil qilishga, undagi ruhiy holatni chuqurroq o'rganishga, psixologik vaziyatlarni izchilroq bayon qilishga harakat qiladi. Shu o'rinda romanning qirq ikkinchi qismi e'tiborni tortadi. Mazkur qism to'liq qahramonning ruhiy olamidagi

kechinmalariga bag'ishlangan bo'lib, muallif bevosita ruhiy tasvir imkoniyatlaridan keng foydalanadi. *“But even then she stopped again in the middle of the room, and stood there gazing at a remembered vision—that of her husband and Madame Merle, grouped unconsciously and familiarly¹¹”*. Birgina shu qismda ichki monolog, ong oqimi, muallif nutqi, psixologik detal, psixologik manzara, ichki psixologik tahlil, tasavvur motivi kabi bevosita ruhiy tasvir shakllari hamda qahramonning harakati, fiziologik o'zgarishlari yordamida bilvosita ruhiy tasvir elementlari qo'llanganining guvohi bo'lamiz.

“The Wings of the Dove” romanining bosh qahramoni Milli Til tipik amerikalik qiz obrazi sifatida gavdalantiriladi. Aslida H.Jeyms 1870-yilda sil kasalidan vafot etgan suyukli jiyani Meri (Minni) Templ (Mary (“Minny”) Temple) xotirasini abadiylashtirish maqsadida bir necha romanlarida uning obrazini yaratadi. “The Portrait of a Lady”da Izabel Archer, “The Golden Bowl”da Meggi Verver timsollari bunga misol bo'la oladi, ammo ruhiy tasvir tahlili maqsad qilingan mazkur romandagi Milli Til obrazida prototipga o'xshashlik mukammallashuvga erishgan. Romanda boshidan oxirigacha bosh qahramon ko'rinish bermaydi, biroq uning barcha qismlarda boshqa personajlarga ta'siri, voqealar rivojida ustunligi sezilib turadi. Milli asli amerikalik qiz bo'lib, uning shaxsiy fazilatlarini Nyu-York shahri bilan bog'liq holda aks ettiriladi. *“It was New York mourning, it was New York hair, it was a New York history, confused as yet, but multitudinous, of the loss of parents, brothers, sisters, almost every human appendage, all on a scale and with a sweep that had required the greater stage; it was a New York legend of affecting, of romantic isolation, and, beyond everything, it was by most accounts, in respect to the mass of money so piled on the girl's back, a set of New York possibilities¹²”*. Muallif qizning motami butun shaharning azasi ekanini ta'kidlaydi, bunda shahar xalqining o'zaro totuvligi va hamjihatligiga ishora qiladi. Qahramonning betakror sochlarini ham Nyu-Yorkga tegishli ekani, bu shahar xalqining turli millatli insonlarining birlashib ketgani, uning tarixi singari ko'pqatlamli, turfaligini kitobxonga yetkazadi. O'tgan yillar mobaynida shahar ko'plab akalar, ukalar, opa va singillar, ota-onalar vafotiga guvoh bo'lgani, shaharning ta'sirchan afsonasi, xayolan tanholigi Milli obrazida mujassam. Qahramonning moddiy jihatdan o'ta ta'minlangan ekani, Nyu-York imkoniyatlar shahariga ishoradir. Psixologik romanda parallel tasvir juda muhim sanalib, mazkur psixologik manzara qahramon ruhiyatining nechog'lik sarhadlari kengligini, ulkan shahar misolida yosh qizning imkoniyatlari bilan bir qatorda, anduhlari, qayg'u va tashvishlari, dardi ham uning jismida mavjudligini yoritadi. Ruhiyatida tushkunlik ulkan inson atrofida qilarga nisbatan mehribon bo'lishga, yaqinlari mehrini boshqalardan izlashi Millida ham mavjud. U samimiy va muloyim tabiatli qiz sifatida xuddi bahaybat shahar misoli hamma undan manfaat izlaydi.

¹¹ <https://www.bartleby.com/311/42.html>

¹² <https://www.pdfdrive.com/the-wings-of-the-dove-e193502268.html>

H.Jeyms ijodida parallel tasvirga ko'proq murojaat qilinganini "The Wings of the Dove" romanida Milli Til obrazi bilan birga, "Washington Square" asarida Dr.Sloper va Morris Taunsend personajlari talqinida namoyon bo'lganini guvoh bo'lish mumkin. Birinchi tilga olingan asarda qizning beaded fazilatlar ulkan shaharga mengzatilsa, ikkinchi qayd etilgan ijod namunasida qahramonlarning mavqei, manfaatlari aks etadi. Ko'rinadiki, muallif bepoyon megapolis, hashamatli hovli kabi ramziy timsollar orqali kitobxon diqqatini tortishga, qahramonlarining ichki ruhiy olamini inkishof etishga urinadi va bu bilan o'zining betakror uslubini namoyon etadi.

Muallif ijodiy bosqichini yakunlovchi mazkur romanda ruhiyat tasviri imkoniyatlaridan batafsil foydalangani namoyon bo'ldi. Bu o'ziga xos yondashuvni tashqi ko'rinish ifodasi orqali ichki olam qirralariga ishora qilish, ong qonuniyatlari nazariyasining unumli qo'llanilishi, so'zning turli ottenkalari namoyon bo'lishi, ramzlar va ramziylik, "qalb dialektikasi"ning poetik tasviri, qahramonlar ruhiy olami orqali voqelik talqinidagi o'zgachalik singari omillar ta'minladi.

H.Jeymsning psixologik realizmini naturalizmdan farqlovchi jihati ham qahramonlarining ruhiy tahlilida erishgan izchilligida bo'ldi. Uning obrazlari naturalistik qahramonlar singari bechorahol yoki jamiyatning tazyiqiga uchragan jabrdiydalar emas, ular davlatmand insonlar, ammo muallifning psixologik tahlili mazkur personajlar murakkab ruhiy jarayondan aziyat chekishlarini namoyon etadi. Ruhiy tasvirning bevosita hamda bilvosita usullarini mohirona qo'llagan adib kitobxonga yillar o'tsa ham zalvori to'kilmaydigan o'gitlarni yetkaza oldi.

Dissertatsiyaning **"T.Vulf romanlarida ijodkor uslubi masalasi hamda inson ruhiy olami tasvirining o'ziga xos talqini"** nomli uchinchi bobi "T.Vulf romanlarida uslub va mahorat ifodasi", "Of Time and the River" romanida qahramon ruhiyati tasvirining badiiy xususiyatlari", "You Can't Go Home Again" asarida inson ruhiyati tasviri tadqiqi" nomli uch fasldan iborat.

Tadqiqot ishimizning mazkur bobida XX asr Amerika modern adabiyotining yana bir yorqin namoyondasi T.Vulfning "Of Time and the River" va "You Can't Go Home Again" asarlari misolida inson ruhiyati tasvirining o'ziga xos talqinining guvohi bo'ldik.

